

TEKNOLOGIYA FANIDA XALQ HUNARMANDCHILIGI  
FANINI MAQSADI VA VAZIFASI

*Mamajonova Guluzro Abdurashidovna*

*Andijon davlat pedagogika instituti*

*Fizika va texnologik talim V.b dotsent*

*Qosimjonova Mubinaxon Qudratbek qizi*

*Andijon davlat pedagogika instituti*

*Texnologik ta`lim 2-bosqich talabasi*

*Qodirova Manzura Nosirbek qizi*

*Andijon davlat pedagogika instituti*

*Texnologik ta`lim 2-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Ma`lumki, xalq hunarmandchiligi tanlov fanini o`qitish hozirgi zamon talabi bilan rivojlanishi va jadallashishi katta ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda mutaxassis kadrlar tayyorlash, ta`lim berish tizimi hayotimizda, jamiyatimizda bo`layotgan islohotlar yangilanish jarayonlari talablari bilan anqindan bog`langaligi har tomonlama sezilmoqda. Biroq, ochiq tan olishimiz kerakki, hozirgi zamon talabiga to`liq javob berishga har kim ham qodir emas, chunki haligacha eskicha fikrlab va yangiliklarni hali to`la-to`kis tushunmaganlar, afsuski, oramizda uchrab turibdi. Bunga avvalo maktab va boshqa o`quv yurtlarining modiy bazasini juda nochor ahvoldaligi sababdir. Albatta bu keltirilgan birgina misol tarbiyachi, o`qituvchi xodimlarga ta`sir etmay iloji yo`q. Oxirgi yillarda respublikamiz rahbariyati, shaxsan prezidentimizning olib borayotgan siyosatida ta`lim yo`nalishi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Prezidentimizning respublika Oliy majlisi 9-sessiyasida so`zlagan nutqida, “Kadrlar tayyorlash miliy dasturi”da ta`lim, ilm, fan-texnika sohalarini rivojlantirish yo`li bilan respublika salohiyatini oshirish, bilim olayotgan yoshlar orasidan iqtidorlilarni ajratish va chet el oliy o`quv yurtlarida, ilmiy tekshirish institutlarda malakalarni oshirish va yurtimizga qaytib, olgan bilimlari bilan respublikadagi islohatlarni amalga oshirishda, iqtisodiyot, fan, aholi turmush darajasini jahonning rivojlangan davlatlari qatoriga etkazishda faol qatnashishdan iboratligi ta`kidlangan.

**Kalit so`zlar:** Texnika, jihozlar, texnologik jarayon, taraqqiyot, rivojlanish, hunarmandchilik, mehnat qurollari yordamida buyum yasash, islohot, yangilanish, iqtidor, qobiliyat.

ЗАДАЧИ И ЗАДАЧИ НАУКИ НАРОДНОГО  
МАСТЕРСТВА В НАУКЕ ТЕХНИКИ

**Аннотация:** Известно, что развитие и ускорение преподавания факультативного предмета народные промыслы имеет большое значение. Сегодня во всех отношениях ощущается, что происходящие в нашей жизни и

обществе реформы в системе подготовки и воспитания специалистов тесно связаны с требованиями процессов обновления. Однако надо открыто признать, что не все способны в полной мере ответить требованиям настоящего времени, потому что, к сожалению, есть те, кто еще придерживается старомодного мышления и не до конца понимает новости. Прежде всего, причиной этого является плохое состояние современной базы школ и других образовательных учреждений. Конечно, невозможно не повлиять на воспитателей и педагогический коллектив одним этим примером. В последние годы направление образования приобрело особое значение в политике, проводимой руководством нашей республики, лично нашим президентом. В выступлении Президента на 9-й сессии Олий Мажлиса республики в «Национальной программе подготовки кадров» повышение потенциала республики за счет развития сфер образования, науки, науки и техники, выделения талантливых среди молодежи, получающей образование и зарубежное высшее образование, повышающей квалификацию в учебных заведениях, научно-исследовательских институтах и возвращающейся в нашу страну и осуществляющей реформы в республике с полученными знаниями, экономики, науки, уровня жизни населения среди развитых. страны мира подчеркивается, что оно заключается в активном участии в родах.

**Ключевые слова:** Техника, оборудование, технологический процесс, прогресс, развитие, мастерство, изготовление вещей орудиями труда, реформа, обновление, талант, способности.

## **PURPOSE AND TASK OF THE SCIENCE OF FOLK CRAFTS IN THE SCIENCE OF TECHNOLOGY**

Abstract: It is known that the development and acceleration of the teaching of folk crafts in accordance with the needs of the present day is of great importance. Today, it is felt in every way that the system of training and educating specialists is closely connected with the requirements of the processes of reform and renewal taking place in our life and society. However, we must openly admit that not everyone is able to fully respond to the needs of the present day, because, unfortunately, there are still those among us who still think in the old way and do not fully understand the innovations. This is primarily due to the very poor state of the material base of schools and other educational institutions. Of course, this is just one example that cannot but affect educators and teaching staff. In recent years, the direction of education has been of particular importance in the policy pursued by the leadership of our republic, and personally by our president. In his speech at the 9th session of the Oliy Majlis of the Republic, it was emphasized that the "National Program for Personnel Training" aims to increase the potential of the republic through the development of education, science,

science and technology, to identify talented people among the young people who are studying, to improve their skills in foreign universities and scientific research institutes, and to return to our country and actively participate in implementing reforms in the republic with the knowledge they have gained, and to bring the economy, science, and the standard of living of the population to the level of developed countries in the world.

**Keywords:** Technology, equipment, technological process, progress, development, craftsmanship, making things with the help of labor tools, reform, renewal, talent, ability.

## **KIRISH**

Respublikamiz siyosatida yoshlarni o`qitish va tarbiyalash masalalari alohida o`rin tutadi. Buni “Ta’lim to`g`risida” va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to`g`risida”gi qonunlarda, Prezidentimizning ta’lim tizimi, kadrlar tayyorlash va barkamol avlod tarbiyasini tubdan isloh qilish haqidagi nutqlarida hamda asarlarida, shuningdek, o`qitish tizimida yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini qo`llash sohasida olib borilayotgan ishlarda ko`rish mumkin. Pedagogika institutlarida talabalarga oliy ma`lumot berish, ularni ilm-fan, texnika va texnologiyalarni o`zlashtirishlarini ta`minlashdan iborat bo`libgina qolmay, balki o`quvchilarga - yosh avlodga ushbu bilimlarni berish, ularni tarbiyalash, dunyoqarashida ilmiy, texnikaviy taraqqiyotga intilishni tarbiyalashga o`rgatishdan iboratdir. Oliy ta’limda ham bir qator islohatlar olib borilmoqda. Masalan, oliy ta’lim yo`nalishi bo`yicha bakalavriatura va mutaxassislik bo`yicha magistraturaga bo`lindi. Shuningdek, respublikamizda akademik litsey va kasb-hunar kollejlari tashkil topdi hamda ularning o`quv-moddiy bazasi tobora yaxshilanib bormoqda. Buni biz hozirgi payt qurilayotgan va faoliyat ko`rsatayotgan zamonaviy akademik litsey va kasb-hunar kollejlari misolida ko`rishimiz mumkin. Bunda mutaxassislik fanlari bo`yicha mashg`ulotlar maxsus jihozlangan o`quv va laboratoriya xonalarida, ustaxonalarda, o`quv-mashq maydonlarida, korxonalarda o`tkaziladi.

## **TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI**

Xalq hunarmandchiligi tanlov fanini o`qitish o`ziga xos xususiyatlariga ega bo`lib, ularni tashkil etish, o`tkazish uchun eng avvalo o`quv materiallarining mazmuni, maqsadi va sharoitlari katta ahamiyat kasb etadi. Har qanday mutaxassislik fanida ma`ruza, amaliy mashg`ulot asosan uch bosqichdan iboratdir:

1. Boshlang`ich ko`rsatmani to`g`ri berish.
2. Ma`lum bir muammoni keltirib, uni to`g`ri yechish yo`larini yoritish.
3. Natijalarni to`g`ri tahlil etish va xulosa chiqarish.

Yuqorida keltirilgan muammolarni yechish va tushunarli yetkazish, to`g`ri xulosa chiqarishda xalq hunarmandchiligi tanlov faniga ham tegishlidir. Ushbu fan

mutaxassislikka oid fanlardan bo`lib, talabalarni bilim olishiga to`g`ri munosabatda bo`lish yo`lini o`rgatadi. Odatda mutaxassislik fanlaridan amaliy kirish ko`rsatmasini berish quyidagi tartibda olib boriladi, ya`ni, mavzu va uning maqsadi bayon etiladi, shu bilan birga oldin o`tilgan mavzu bilan bog`lab, o`quvchilarning darsga tayyorgarligi aniqlanadi. Darsga oid texnologik chizmalar, asbob-uskunalar va shunga o`xshash narsalar bilan qanday ishlash lozimligini tushuntiriladi.

### **TADQIQOT NATIJALARI**

Respublikamizda amalga oshirilgan istiqloq tufayli yo`qolib borayotgan milliy hunarmandchilikni qayta tiklash, uni o`sib kelayotgan yosh avlodgi o`rgatish uchun keng imkoniyatlar yaratildi. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 1997 yil 31 martda e`lon qilingan “Xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san`atini yanada rivojlantirishni davlat yo`li bilan qo`llab-quvvatlash chora-tadbirlari to`g`risida”gi Farmonda milliy madaniyatni rivojlantirishda xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san`atining ahamiyatini oshirish, qo`lda yuksak badiiy buyumlar yasashning asriy an`analarini qayta tiklash hamda xalq hunarmandchiligini tarqiy ettirishga davlat tomonidan aniq yordam ko`rsatish belgilab berildi. Yog`och o`ymakorligi, sandiqchilik, chilangarlik, pichoqchilik, navvoylik, naqqoshlik, turli milliy buyumlar (do`ppi, so`zana, kirpech, joynamoz va h.), kashtalar, choklarni (yo`rma, xamdo`zi, tugin, suv, kabi usullarda) tikish uchun kerakli dastur va o`quv qo`llanmalari tuzib amaliyotga tadbiiq etish hozirgi kun talabidir. Talabalarga bilim berishda avvalambor “Hunarmandchilik” so`zining asl ma`nosini izohlab berish lozim. Hunarmandchilik degani har xil mehnat qurollari yordamida xom ashyodan chiroyli buyumlar ishlab chiqaradigan kasblarning umumiy nomini anglatadi. Xalq hunarmandchiligi kulolchilik, yog`och o`ymakorligi, chilangarlik, sandiqchilik, pichoqchilik, naqqoshlik, tikuvchilik, kashtachilik, zardo`zlik, to`quvchilik, kabi turlardan iborat bo`lib, ularning sir-asrorlari asrlar davomida ota-bobolarimiz, buvi va onalarimiz tomonidan o`rgatilishi natijasida avloddan-avlodga meros bo`lib o`tib kelmoqda. Aytish mumkinki, o`g`il-qizlarimizning jamiyatda o`z o`rinlarini topishlarida, kelgusida ma`lum bir kasb-hunar egalari bo`lib jamiyat manfaati uchun xizmat qilishlarida, milliy qadriyatlarimizni anglab yetishida xalq hunarmandchiligining o`rni beqiyosdir. Yoshlarni kelajak hayotga, oilaviy turmushga tayyorlash - maktab yoshidan boshlanadi. Ular oilada mehmondo`st, oilani tebratadigan, isrofga yo`l qo`ymaydigan, pokiza, pazanda bo`lish bilan birga qo`li gul chevar bichuvchi, tikuvchi, kashtachi, zardo`z, o`g`il bolalar ham biror hunar egasi bo`lib, o`zlari tanlagan kasbi bo`yicha halol non topish yo`lini o`rgansalar ularga hammaning havasi keladi.

### **MUHOKAMA**

Texnologiya darsida o`tiladigan har bir mavzuga doir nazariy tushunchalar amaliy ishlab bilan o`z tasdiqini topishi kerak. Bu o`z navbatida, o`sha mavzuning

qiziqarli, foydali tomonlari va jamiyatda aynan o‘sha mehnatning roli kattaligini, aynan shu mavzu orqali bolalar kelajakdagi hunar yoki kasb tanlashdagi qarorini mustahkamlashga da’vat etadi. Qo‘l mehnatining boshqa mehnat turlari singari tarbiyaviy imkoniyatlar keng. Ayniqsa, bolalarni aqliy va axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan o‘stirishda qo‘l mehnati ta’limining roli ko‘p qirralidir. Qo‘l mehnati o‘zining qiziqarliligi va amaliy ishlarga jalb qilish jarayonlari bilan o‘quvchilarning bilim olishlariga intilishlarini qo‘zg‘ovchi nafaqat vositasi, balki uning manbai, omili hamdir. Mehnat samaradorligini oshirishda qo‘llaniladigan har qanday usul o‘quvchilar tomonidan egallanishi lozim bo‘lgan bilimlarning etarli darajada egallanishiga xizmat qilishi kerak. O‘quvchilar chizmani o‘qituvchi chizgan o‘lchamlari asosida emas, balki buyumni istalgan o‘lchami bo‘yicha chizib, egallagan bilimlarini amalda qo‘llay olsinlar. Mehnat samaradorligini oshirishda hozirgi zamon taraqqiyotidan kelib chiqqan holda, har bir o‘qituvchi yangi pedagogik texnologiya fanini yaxshi o‘qib, chuqur o‘zlashtirsa o‘z oldiga qo‘ygan maqsadidan ham yuqori natijaga erishdi.

### XULOSA

Shuni xulosa qilamizki, o‘qituvchi va o‘quvchilarning usullari bo‘lib, bular yordamida o‘qituvchi, o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini egallashlariga erishildi. Har qaysi o‘qituvchi o‘z tajribasida o‘qitishning xilma-xil usullaridan foydalanishi mumkin. O‘qituvchining pedagogik intilishi va qarashlari, shuningdek, hatti-harakatlari, butun dars jarayonida o‘quvchilarning diqqat e’tibori susaymasligiga, fikrlarning jamlangan bo‘lishiga, ularning chambarchasliglariga yo‘llangan bo‘lishi kerak. O‘qituvchi darsning har bir daqiqasini qadrlab, o‘quvchilarni ham shunga o‘rgatish kerak. Har bir o‘qituvchiga o‘z uslubi, o‘z metodi va o‘z usulining o‘ziga xosligiga ega bo‘lish huquqi berilgan. Biroq shuni aytish kerakki, bularning barchasiga bilim, bir qarashda hammaga ravshan bo‘lgan haqiqatlarni egallab olganlaridagina erishish mumkin. Mehnat tarbiyasi bolalarda mehnatga munosabatni tarbiyalashda muhim omil bo‘lib, dars va sinfdan tashqari ishlarning asosiy o‘zagi hamda maktabning hayot bilan aloqasini mustahkamlovchi asosiy yo‘llardan biridir. Shu nuqta nazardan qaraganda o‘quvchilarni mehnatga ruhiy va amaliy tayyorlash maktabning asosiy ta’limiy va tarbiyaviy vazifalaridan biri bo‘lib qolishi kerak.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Булатов С.С. Ўзбек халқ амалий-безак санъати. Ўқув услубий қўлланма. Т. 1991й.
2. Хасанов Э. Г, Ақромхўжаева М, Ақромходжаева Р. «Каштачилик» услубий қўлланма, Тошкент-2004 й.
3. Q.M. Abdullayeva, M.A. Maksumova, M. Raximjanova. Gazlamaga badiiy ishlov berish. –T.: —Cholpon, 2011
4. К. Фуломов. Амалий санъат.: Тошкент. —Iqtisod-moliya 2007